BUXORO SHAHAR GODONIMLARINING AYRIM LISONIY XUSUSIYATLARI

Uchqunova Aziza Sulaymonovna
BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi magistranti
a.s.uchqunova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur axborotda o'zbek tilida toponimlar, Buxoro shahridagi ko'cha nomlari (godonim), ularning morfemik va leksik tahlili, antropogodonimlar, topogodonimlar, kasb-hunarga oid godonimlar, inshoot, o'simlik bilan bog'liq bo'lgan godonim, gidrogodonimlar, ularning mazmun-mohiyati, etimologiyasi haqidagi ma'lumotlar misollar asosida bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье приведены топонимы на узбекском языке, названия улиц (годонимов) в городе Бухара, их морфемный и лексический анализ, антропонимы, топогодонимы, годонимы профессионального характера, годонимы, относящиеся к строениям, растениям, гидрогодонимы, их значение, этимология на основе приведенных примеров.

Annotation: This article provides toponyms in the Uzbek language, names of streets (hodonyms) in the city of Bukhara, their morphemic and lexical analysis, anthroponyms, topogodonyms, professional hodonyms, hodonyms related to buildings, plants, hydrogodonyms, their meaning, etymology based on the given examples.

Kalit so'zlar: toponim, toponimiya, urbonim, godonim, morfemalar, qo'shma so'z, antropogodonim, gidrogodonim, topogodonim, inshoot, o'simlik, kasb-kor bilan bog'liq godonimlar.

Ключевые слова: топоним, топонимия, урбаноним, годоним, морфемы, сложное слово, антропогодоним, гидрогодоним, топогодоним, строение, растение, годонимы, относящиеся к профессии.

Key words: toponymy, urbanonym, godonym, morphemes, compound word, anthropogodonim, hydrogodonim, topogodonim, structure, plant, profession-related godonyms.

Toponimlar tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan bo'lib, uzoq davrlar yashaydi. Qadimiy paytda maydonga kelgan nom keyingi xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas, uning qanday ma'noni anglatishi haqida har doim ham o'ylab o'tirishmaydi. Turli soha vakillari – tilshunoslar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar. Toponimlar manzilgina emas, balki ko'pdan-ko'p axborot – tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega bo'lib,

ma'nosiz nom bo'lmaydi. Lekin ko'pgina joy nomlarining ma'nosi vaqt o'tishi bilan yo'qoladi yoki hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo'lib qoladi.

Joy nomlariga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarininig o'zaro aloqalarini, ularning turmush tarzini, maishiy hayotini, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi – migratsiyasini bilib olish mumkin.

Turli davrlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning ham etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va hududning tarixiy toponimiyasida o'ziga xos iz qoldirgan. Buni O'rta Osiyoning o'tmishda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi yoki o'troq bo'lgan aholisining hozirgacha saqlanib qolgan urug'-qabila nomlarida ham ko'rish mumkin. Joy nomlari juda qadim zamonlarda, ibtidoiy tuzum davrida paydo bo'la boshlaganligi ma'lum. Ular ming yillar davomida to'plana borgan va hozirgi vaqtda Yer sharida behisob toponimlar bor. Lekin hammasi bo'lib dunyoda qancha joy nomlari bor ekanini hech kim bilmaydi, buni hisoblab chiqishning iloji ham yo'q. Har bir qishloqda va uning yon-berida bir necha quduq, kichik jar, ayrim qoya, hovuz, chekka yer, buloq, tepalik, xirmonjoylar, yolg'izoyoq yo'llar uchraydiki, ularning nomlari shu qishloqdagi bir guruh odamdan boshqa hech kimga ma'lum emas. Bunday kichik obyektlarni eng mukammal topografik xaritadan ham topib bo'lmaydi.

Toponimiyada turli-tuman atamalar qo'llanadi. Jumladan, shahar ichki obyektlarining nomlari *urbonimlar* deb atalishi manbalarda qayd etiladi. Bunday obyektlar shahar tarkib topgan davrdan boshlab paydo bo'lgan. 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash siyosatida ham burilish nuqtasi bo'ldi, toponimlarni milliylashtirish harakati boshlandi.

Biz toponimikasini tahlil qilmoqchi bo'lgan Buxoro shahri qadimda atrofi bepoyon sahrolar bilan o'ralgan. Bir vaqtlar Buyuk ipak yo'lida joylashgan shahar eng qadimgi manzilgohlardan biri bo'lib, uning tarixi ikki ming besh yuz yildan oshadi. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida ushbu shahar haqida bir qadar qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bu asarda O'rta Osiyoning VIII-XII asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan. Shu bilan birga eski Buxoro va uning yaqinidagi bir necha yuz geografik nomlar tilga olingan. Shunisi qiziqki, X-XI asrlardagi ko'pgina geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan.

Bugungi kunda shahar hududida to'rt yuzdan ortiq ko'cha mavjud. Har bir ko'chaga berilgan nom o'ziga xos etimologiyaga – kelib chiqish tarixiga ega. Ko'cha nomlari – godonimlar (godonim – yunoncha: ko'cha, yo'l) shahardagi liniyali obyektlar – shohko'cha, ko'cha, torko'cha, bulvar, xiyobon, suv qirg'oqlari, sohillar va boshqalarning atoqli oti [2, 26] ekanligini inobatga olsak, ularning turli ma'no guruhlari ajratilishi mumkin. Biz tahlillarimiz davomida ana shu joy nomlarini morfologik va leksik tahlil qilishga harakat qilamiz.

Shahar hududidagi Siyohkoron, Tagbandbofon, Gavkushon, G'oziyon, So'fiyon, So'zangaron, Quyi Murg'kushon, Sarrofon, Halvopazon, Chitbofon, Sobungaron, Kosagaron, Mirakon, Ravg'angaron, Pistashikanon, Bo'yrabofon, Zargaron, Charmgaron, Orifon kabi godonimlar tarixiy nomlar sirasiga kiradi. Ularning tarkibidagi ***-on*** affiksi o'zbek tilida aksariyat toponimda uchraydi. Bu affiks kishilarning qandaydir ijtimoiy guruhga, chunonchi: 1) muayyan millatga – *Arabon* (arablar); 2) qandaydir urug'-aymoqqa – *O'zbakon* (o'zbeklar), *Minggon* (ming urug'idan bo'lgan kishilar); 3) ma'lum tabaqaga – *So'fiyon* (kotiblar); 4) hunar-kasbga – *Bo'yrabofon* (bo'yra to'quvchilar), *Kosagaron* (kosa ustalari), *So'zangaron* (igna ustalari); 5) diniy e'tiqodga mansub ekanligini bildiradi: *G'oziyon* (g'oziylar, ya'ni din yo'lida kurashganlar) va h.k. ma'noli nom yasashga xizmat qiladi [3; 5; 6].

Buxoro shahrida -gar qo'shimchasi orqali yasalgan godonimlar ham uchraydi. Ushbu qo'shimcha forsiy tildan bo'lib, shu tildagi lug'atda "...payvandi kalimasoz, ki ba kalimoho hamroh omada manohoyi zerinro medihad"[16, 25] deya izohlanadi va biror kasb-kor bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari yasashi misollar asosida ko'rsatiladi. Yuqorida keltirilgan ko'cha nomlari va Kamongar godonimi ham shunday misollar jumlasidandir.

-gar qo'shimchasi o'zbek tilidagi ot, harakat nomi, sifat, sondan ot yasovchi -chi unumli morfemasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. O'rganilayotgan hududda –chi orqali yasalgan toponimlar ham uchraydi, masalan: Quduqchi, Temiryo'lchilar, Suvchilar kabi.

O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekiston bilan Tojikistonda sermahsul formantlardan biri *-iston* qo'shimchasidir. Bu komponent mamlakat, o'lka nomini yasaydi yoki biror narsaning ko'p ekanligini bildiradi. O'zbekiston – "O'zbeklar mamlakati" kabi" [14, 32]. Buxoro shahrida bu qo'shimcha orqali yasalgan Shahriston va Registon godonimlarini misol keltirish mumkin. Shahriston toponimi tarixiy nom va Buxoro shahrining eng qadimgi, dastlab vujudga kelgan qismi sifatida manbalarda qayd etib o'tilgan bo'lsa, Registon ham tarixiy va Buxoro Arki oldidagi katta maydonga nisbatan ishlatilgan nom sifatida e'tirof etiladi [9; 10; 11].

O'zbekiston toponimlari tarkibida eng ko'p uchraydigan affikslar qatorida turuvchi *–zor* qo'shimchasi orqali yasalgan ko'cha nomlariga ham duch kelamiz. Jumladan: Gulzor, Lolazor, Olmazor, Tutzor, Shaftolizor, O'rikzor kabi. O'rin-joy otini yasashga xizmat qiluvchi bu morfema -goh, -xona, -loq, -iston kabi qo'shimchalar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi.

Buxoro godonimlari sirasida –goh affiksli nomlar ham uchraydi. XII asrda shahar tashqarisida Iyd namozlari o'qish uchun qurilgan Namozgoh masjidi bilan bog'liq Namozgoh godonimi tarkibida mazkur qo'shimcha uchraydi.

Buxoro godonimlari o'ziga xos leksik-semantik jihatlarga ega. Buni Buxoro godonimlarining tarkibi, ularda qo'llangan lug'aviy asoslardan bilb olish mumkin.

Geografik nomlar tarkibida bir xil elementlarning takrorlanishini olimlar allaqachonoq payqagan. Masalan, XII-XIII asrlarda ijod qilib, 10 jildlik "Mu'jam ul-buldon" ("Mamlakatlar lug'ati")ni tuzgan arab geografi va filologi Yoqut Hamaviy shahar-qishloqlaming nomlari tarkibida keladigan *obod* unsuri fors tilida aholi punkti ma'nosini bildiradi, masalan, Asadobod "Asad qishlog'i" demakdir, deb yozgan edi" [14, 31].

Buxoro shahar godonimlari orasida ham tarkibida *obod* so'zi mavjudlari bor. Bular sirasiga Ruxshobod, Hayotobod, Elobod, Fayzobod, Ashxobod, Davlatobod, Xalqobod, Xo'ja Nurobod, Gulobod, Suvobod, Fathobod, Amirobod, Yangiobod, Zafarobod kabilarni kiritish mumkin. Ikkinchi qismi *obod* so'zi bilan ifodalangan joy nomlari imlo qoidasiga binoan hamisha qo'shib yoziladi. Nomlardagi *obod* komponenti, *o'zlashtirilgan yerda tashkil qilingan qishloq* ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, *obod* so'zi Movarounnahrda X asrlardan boshlab kishi ismlariga qo'shilib, qishloq, mahalla, guzar, ko'cha nomlari yasalishida ishtirok etgan. Ayniqsa, X-XI-asrlarda bu lisoniy amaliyot kuchaygan. Bu davrda yangi yerlar o'zlashtirilib, yangi qishloqlar paydo bo'lgan [13, 23-39].

Buxoro godonimnlari sirasida *rabot* komponenti alohida o'rin va mavqega ega. Bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan: 1) mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma'lum masofada joylashgan istehkom; qo'rg'on; 2) savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy; 3) shahardan chetroqdagi turar joy [17-1, 610].

Shunday qilib, dastlab *rabaz* deganda ichki shaharni emas, balki shahar atrofidagi devor hamda shaharga tutash qishloq-mahallalar tushunilgan. Keyinchalik bu ikki atama bir-biriga qo'shilib, ham *karvonsaroy,* ham *rabot* yoki *rabod* deb ataladigan bo'ldi. Buning sababi shu ediki, deb yozadi V.V.Bartold, istilochilar qurgan rabotlar bu erda oldindan mavjud bo'lgan g'aribxonalar va ibodatxonalarga juda o'xshab ketar edi. Shuning uchun ham bunday tayyor binolar rabotlarga moslashtirilgan. Buning ustiga rabot qurish ham masjid solish kabi savob ish hisoblangan. Bu so'zlarning yaqinlashishini shundan bilsa ham bo'ladiki, Buxoro yaqinida yashab o'tgan Juybor shayxlari (xo'jalari)ning arxivlarida (XV-XVI asrlar) bu atamalar bir-biridan deyarli farq qilmagan: *rabaz* ~ og'ilxona, hovli joy, *rabot* – qo'rg'on, qo'ra. Shuningdek, S.Qorayev rabot (ravot, rabod) so'zi ishtirokidagi toponimlarning O'zbekistonda 200 dan ortishini va ularning aksariyati Zarafshon vodiysida ekanligini qayd etgan [14, 212].

A.R.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, rabot/ravot atamasi ikki komponentli bo'lib, u *ra* hamda *bot/vot s*o'zlari qo'shiluvidan yasalgan. Atamaning birinchi komponenti *ra* aslida fors-tojik tilida "yo'l" ma'nosini anglatuvchi *roh/rah s*o'zidan. Uning ikkinchi komponenti *bot/vot* esa so'g'diycha *vat/vata* so'zidan. U "qo'noq" va "manzil" ma'nolarini anglatgan [12, 43].

Rabot so'ziga professor T.Nafasov quyidagicha ta'rif bergan: *"Rabot (arabcha) – arab istilosidan so'ng savdo yo'llarida qurilgan tevaragi devor bilan o'ralgan manzil, karvonsaroy, harbiy istehkom, shahardan tashqarida qurilgan saroy. Saroy, qo'rg'on, maschit, qishloq so'zlari bilan birikib joy nomlari yasalganda aholi maskanining hajmi, shakl, miqdor, ko'rinishi, tuzilishi, qarashlilik, qaysi toifa kishilari tomonidan yaratilishi va kimlarga xizmat qilishi kabi tabiiy va sostial-ijtimoiy belgilar nomlanishiga mezon qilib olingan"* [13, 198-199].

Buxoro shahrida toponimiyasi tarkibiy qismida "rabot" so'zi bor ko'cha nomlari ham mavjud: Kaltarabot, Rabotiqozi kabilar shular jumlasidandir. *Kalta* so'zi fors tilida "qisqa" ma'nosini bildirgani bois ushbu joyning kichikroq bo'lganini taxmin qilish mumkin. "Rabot" va "qozi" so'zlaridan tashkil topgan Rabotiqozi nomi qozilar yashovchi joy yoki qozi boshchilik qiladigan yoxud qoziga qarashli maskan ma'nosini ifodalaydi.

Buxoro godonimlari tarkibida *xona* komponenti vositasida shakllangan toponimlar ham anchagina. *Xona* so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "uy yoki binoning devor bilan ajratilgan qismi, bo'lma" [17-2, 331] deb ta'rif berilgan. Aslida forscha-tojikcha bo'lgan *xona* so'zidan yashash manzili, biror narsa turadigan, saqlanadigan joy ma'nosidagi ko'plab so'zlar yasalishi mumkin. Godonimlar tarkibidagi *xona* komponenti turlicha ma'nolarini ifodalagan: Alotxona – alot/olot/arlot urug'iga mansub kishilar yashaydigan joy, Janafarxona – janafar urug'iga mansub kishilar yashaydigan joy, Havzi Jilovxona – otxonalar joylashgan manzildagi hovuz, Darvozai Sallohxona – Buxoroning janubiy darvozasi, Korxona – ishxona mavjud joy, To'pxona – to'p joylashgan maskan kabilar.

Shahar godonimlari orasida tarkibi ikki yoki undan ortiq asosning qo'shilishidan hosil bo'lgan va yagona struktur-semantik birlikni tashkil etgan nomlar ham uchraydi. Masalan, Juvozqog'oz, Rabotiqozi, Bog'ishamol, Gulchorbog', Otbozor, Bozorigul, Qizilqum, Ko'chabog', Temirbog'i, Gulbahor kabi ikki komponentli ko'cha nomlari mazmun jihatdan uncha ham izoh talab qilmaydi. Ammo shahar hududida shunday qo'shma so'z shaklli ko'cha nomlari borki, forsiy (tojik) tilidan bexabar kishi uchun biroz tushunarsiz. Misol uchun, Halvopazon. Bu so'z *halvo+paz+on* kabi qismlarga ajraladi. *Halvo* so'zi o'zbek tilidagi holva (shirinlik turi), *paz* – *pazidand* esa pishiruvchi, tayyorlovchi ma'nosini beradi. *-on* affiksi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. So'zning umumiy ma'nosi "holva tayyorlovchilar"dir. Chitbofon toponimi tarkibi *chit+bof+on* ko'rinishida tahlil qilinadi. Bunda *chit* – yengil ip gazlama bo'lib, qadimda yog'och dastgohda paxta ipidan to'qilgan mato hisoblanadi. "bof" so'zi esa forsiy tildan "o'ramoq", "to'qimoq"deya tarjima qilinadi. Ushbu godonim "chit to'quvchilar" degan mazmunni beradi. Yana shunday tahlilni Xo'ja Aspgardon godonimi misolida davom ettirish mumkin. Xo'ja so'zi fors tilidan bo'lgan unvon bo'lib, turkiy tilli mamlakatlarda ham qo'llangan. Ushbu atamaning umumiy ma'nosi

“hurmatli shaxs”, “yuqori martabali kishi” ma’nosini beradi. *Asp+gardon* shaklida tarkibiy qismga ajraluvchi keyingi so‘zda esa “asp” -ot (hayvon), “gardon” – aylantiruvchi, qaytaruvchi kabi mazmunlarni beradi. Umuman, bu godonim “otlarni aylantiruvchi, davolovchi Xo‘ja” ma’nosiga ega.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, toponimlar – yerning tili deya bejizga ta’riflanmagan. Darhahiqat, xalq tomonidan qo‘yilgan nomlarga qarab biror hudud tabiati, relyefi, iqtisodiyoti, ijtimoy hayoti, etnografiyasi, aholisining tarkibi, kundalik turmushi to‘g‘risida ko‘p ma’lumotlarni bilib olish imkoni mavjud. Buxoro shahar ko‘cha nomlarining lisoniy tadqiqi orqali qadim shahar tarixi, uning o‘tmishi boy bo‘lganligi borasida bilimga ega bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –T.: Navro‘z, 2020. – 120 b.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. –Б.26.
3. Kilichev B.E. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdona, 2023. – 180 b.
4. Киличев Б.Э. Топонимлар таркибидаги сонлар ҳақида // “Ilm sarchashmalari” Urgench, 2021, 3-son. –B.148-151.
5. Kilichev B.E., Timur Khojaoglu, Nodira Adizova Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region)/ International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym/ Central asian journal of literature, philosophy and culture. Volume: 03 Issue: 05 May 2022.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
8. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.
9. Kilichev B.E., Bafoyeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel “Bygone days” Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.
10. Kilichev B.E A way of making words on proper nouns// International Journal on Integrated Education Volume 3, Issue II, Feb 2020. p. 96-98.

11. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region’s typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.

12. Муҳаммаджонов А. Работ атамаси этимологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. – 2-сон. – Б.43.

13. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Т.: Муҳаррир, 2009. – 430 b.

14. Qorayev S. Toponimika. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318 b.

15. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –М.: Наука, 1976. – Б.187-188.

16. Фарханги тафсирии забони тожики. Ҷилди 1. –Душанбе, 2008. –С.25.

17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдлик, 1-жилд. –М.: Рус тили, 1981. –Б.610; 2-жилд. –М.: Рус тили, 1981. –Б.331.